

ISSN: 2545-0573

BOLA TARBIYASIDA OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIGINING ROLI

Boboqulova Gulnoza

Buxoro davlat universiteti pedagogika institute Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Munosabat, hamkorlik, tarbiya, oila, mahalla.

Annotasiya

Maqola tarbiya borasida, uning jamiyat rivojidadagi o'rni haqida fikrlar keltirilgan bo'lib, bugungi kunda tarbiyaning o'rni va ahamiyati haqida, shuningdek, tarbiya jarayonida maktab, oila mahalla hamkorligi haqida fikr bildirildi. Oila va maktab, shuningdek, mahalla hamkorligi bugungi kunning eng dolzarb masalasidir. Maqolada zamonaviy ta'limda bu 3tabbo'gning integratsiyasi haqida chuqurroq fikr bildirildi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etish masalalarini o'rganadi. Tarbiya nazariyasi markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagoglarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika,estetika, fiziologiya, psixologiya, fanlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning tashqi bilimlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog'langandir. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy. axloqiy, irodaviy estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o'sgan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mustahkamlashadi. Oilada tarbiya turli qoidalar asosida olib boriladi. Tarbiya qoidalari pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil e'tish maqsadida foydalaniladigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Ta'lim qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari sharq va markaziy Osiyo faylasuf donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogikada erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil e'tishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

Oilada tarbiyaning olib boriladigan tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning insonparvarligi va demokratligi;
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi;
- tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- tarbiyalanuvchining yoshini va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;

Demak, tarbiya usuli tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorligidagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Bu jarayonda esa oilaning o'rni, ayniqsa, katta. Oila – an'anaviy tarbiyaning asosiy instituti bo'lib hisoblanadi. Bola yoshlik davrida oilada olgan ta'lim – tarbiyasini butun umri davomida saqlab qoladi. Bola hayotini asosiy qismini oilada o'tkazadi, o'zining ta'sir kuchiga ko'ra hech qanday tarbiya vositasi oila bilan bellasha olmaydi. Oilada bola shaxsini asoslari tarkib topdiriladi maktabga borganda esa bola shaxs sifatida shakllangan bo'ladi. Oila bolalarga insoniy va salbiy ta'sir etish omili bo'lishi mumkin. Bola shaxsiga ijobiy ta'sir etish shundan iboratki, oilada bolaga eng yaqin insonlardan - ota, ona, buvi, buva, aka, opalardan tashqari hech kim ulardek bolani yaxshi ko'rib, u haqida qayg'urmaydi. Shu bilan birga, bola shaxsini shakllantirishga, ularga tarbiya berishda oila salbiy ta'sir ham ko'rsatishi mumkin. Oila – bu o'ziga xos jamoadir u tarbiyada asosiy o'ringa egadir. Oilani o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan holda, oilani bolaga ijobiy ta'sirini oshirib, salbiy ta'sirini kamaytirish zarur. Buning uchun esa tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, ichki oilaviy ijtimoiy-psixologik omillarni aniq belgilash lozim.

Bolani tarbiyalashda asosiysi ota-onalar bilan bola o'rtasida qalban yaqinlikka va axloqiy bog'likka erishishdir. Ota-onalar hech qachon tarbiya jarayonini o'z holiga tashlab qo'ymasligi kerak, ayniqsa katta bo'la boshlagan bolani o'z holiga tashlab qo'ymasligimiz kerak. Bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganadi. Biz bolani nimaga o'rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlash kerak, bola kattalarni aytgan gaplari amalda ham bir xil bo'lishini ko'rishi kerak. (masalan: agar bola har kuni ota-onasi tomonidan yolg'on gapirish mumkin emasligini eshitsu-yu, lekin ota-onalar o'zi sezmaganda shunga qoidaga rioya qilmasalar, bola tarbiyasiga darz ketadi). Har bir ota-onalar farzandlarida o'zlarni davomchilarini ko'radi. Farzandlarini o'zlari xohlagan inson bo'lishlarini xohlaydilar. Ota-onalar o'rtasidagi mojaroli vaziyatlar, ayniqsa, munosabatlarni darz ketkazish uchun sabab bo'lishi mumkin. Ota-onalar o'rtasidagi mojaroli vaziyatlar – bu ota-onalar tomonidan bola tarbiyasiga turlicha yondashuvdir. Mojaroli vaziyatlarni hal etish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak. Maktabda va oilada bolalarning o'zini tutishiga alohida e'tibor berish, ayniqsa muhim. Maktabni oila bilan bog'lovchi vosita- bu o'qituvchilardir. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligini yo'lga qo'yishda sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyati nihoyatda muhimdir. O'qituvchilarni tarbiyalashda sinf rahbari ommaviy, guruh, yakka tartibdagi ishlarni tashkil qiladi. Maktabning oila bilan olib boradigan ommaviy ish shakllariga: pedagogik ma'ruza, ota-onalar majlisi, ochiq eshiklar kuni, maslahat berish, savol –javob kechalari, biron bir mavzuga bag'ishlangan yig'ilishlari kiradi. Pedagogik bilim ota-onalar uchun nihoyatda zarurdir. Pedagogik bilim maktabda, mahallada va kundalik axborot vositalari orqali berib boriladi. Pedagogik ma'ruza pedagogik bilim berishning an'anaviy shakllaridan biridir. Ota-onalar uchun ma'ruza aniq material, ijobiy namunalar, adabiy manbalar ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanib o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Sinf rahbari ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllaridan biri har o'quv choragida kamida bir marta ota-onalar majlisi o'tkazishidir. Sinf rahbari o'qituvchilarni aqliy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, o'quv mehnatidagi bo'sh tomonlar, o'quvchilarning turli fanlarga munosabatlari, ularning mehnatsevarligi, tirishqoqligi to'g'risidagi o'qituvchilar fikri bilan tanishtiradi. Maktabning oila bilan olib boradigan guruh tarzidagi ish shakliga ota-onalar qo'mitasi faoliyati, guruh tarzidagi majlis – suhbatlar kiradi. Umummaktab va sinf ota-onalar qo'mitalarining faoliyati umumta'lim maktablari ota-onalar qo'mitasi Nizomida belgilangan. Bu qo'mitalar ota-onalar yig'ilishida saylanadi. U bolalarga maktab va oila tarbiyaviy ta'sirining yaxlitligini ta'minlaydi. Qo'mitaning ishini Rais boshqaradi. Maktab ota-onalar qo'mitasi sinf ota-onalar qo'mitalari faollari ni o'qishlari ularning tajriba almashishlarini tashkil qiladi. Sinf rahbari ota-onalar qo'mitasi bilan birgalikda oilada bolalarning tarbiyalashning shakl va usullari bu ishda ilg'or tajribalarni o'rganadi. Maktabning ota-onalar, jamoatchiligi bilan aloqa qilishida O'qituvchi va tarbiyachilarga yaqindan yordam beruvchi bu maktab ota-onalar qo'mitasidir. Mazkur qo'mita qabul qilgan umumiy qoidalar asosida ota-onalar jamoatchiligini maktab hayotiga, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarga jalb qilinadi. Maktabning oila bilan olib boradigan yakka tartibdagi ish shakllariga: pedagogik suhbatlar, ota-onalarni maktabga taklif qilish, oilaga tashrif kiradi. Sinf rahbari

ota-onalarning uylariga borib maishiy sharoit bilan tanishadi. O'quvchini tarbiyalash yuzasidan ota-onalarga maslahatlar beradi. Maktab aholining, birinchi navbatda, ota-onalarning pedagogik uquvini amalga oshiradi, har bir oilada o'zaro hurmat, bir-biriga yordam, insoniy munosabatlar muhiti yaratilishini qo'llab-quvvatlaydi, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarning bolalariga moddiy yordam ko'rsatish yo'lida fuqaro mehr-shafqat dasturini amalga oshirishda o'zining tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib beradi. Oila esa, o'z navbatida o'quv-tarbiya jarayonini qayta qurishda maktabga yaqindan yordam berib, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyaning barcha jabhalarini egallashlari uchun maktab jamoasiga yaqindan ko'maklashadi. Shuning uchun ham oila, maktab va mahalla hamkorligi masalasi hozirgi davrning asosiy talabidir.

Oilada bola tarbiyasini yo'lga qo'yishda mahallaning roli kattadir. Qadimdan o'zbek xalqi mahalla-jamoatchilik bilan hamjihatchilikda yashab, oilaviy urf-odat va an'analarni ular ishtirokida, ular bilan bamaslahat o'tkazganlar. Mahalla kishilarni birlashtiradigan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jamoa vazifasini bajarib kelgan. «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan naqldan kelib chiqib kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo'lmish mahallaning oldida quyidagi vazifalar turadi:

- ✓ mahala o'z hududidagi yordamga muhtoj oilalarni aniqlaydi va ularni qo'llab – quvvatlab, farzand tarbiyasida ishtirok etadi;
- ✓ ma'nan nosog'lom oilalarni mahala yig'inlarida muhokama qilish va ularga nisbatan chora ko'rish;
- ✓ mahalla hududidagi o'quv tarbiya muassasalaridagi ijtimoiy va iqtisodiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash;
- ✓ ota-onalar orqali bolalardagi mehnatsevarlik vatanparvarlik, tashabbuskorlik kabi xislatlarni singdirishni rag'batlantirish;
- ✓ Mahala hududida o'quv tarbiya muassasalari bilan birgalikda bayram, ko'rik tanlov, anjuman, sport musaboqalarini tashkil etish.
- ✓ ta'lim yo'nalishida iqtidorli bo'lgan o'qituvchi bolalarni maktab tavsiyasiga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab- quvvatlash;
- ✓ ilg'or pedagogik xodimlar tarbiyachilarga mahalla imkoniyatidan kelib chiqqan holda yordam berish;
- ✓ farzandlariga ta'lim –tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishgan namunali oilalar hayoti tajribasini ommalashtirish;
- ✓ Har bir yosh fuqaroda O'zbekistonga, uning tabiatiga, tarixiga qiziqish, mahalla obodonchiligi, ahilligi uchun javobgarlik ruhini tarbiyalash.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y –harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan «Oila, mahalla, maktab hamkorligi kontseptsiyasi eshlarni manaviy barkamol ,vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida malum dasturulamal bo'ldi.

Yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalkimizning boy milliy, madaniy, tarixiy, an'analarga, urf-odatlariga, hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan. Samarali zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqib amaliyotga tadbiiq etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishining ustuvorligini ta'minlash, umumiy va milliy pedagog madaniyatni oshirish, fukarolar orasida miliy mafko'raviy tarbiya ishlarini takomillashtirish, «Oila, mahala, maktab hamkorligi» kontseptsiyasini asosiy maqsadidir.

«Oila, mahalla, maktab hamkorligi quyidagi tamoyillarga asosan olib boriladi.

Tamoyillar:

- Ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;

- Tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;
- Hamkorlik jarayoni sub'ektlarining teng xuquqliligi va yuksak mas'uliyati;
- Hamkorlikning milliy asoslanganligi;
- Faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi.

Bundan tashqari, oilada munosabatning quyidagi 3 turi bor.

1. Avtoritar (loqaydlik) munosabat (xamileon-buqalamun) bo'lmaslik kerak so'zi avtaritet so'zlariga ma'nodosh obro saqlamoq degan ma'noni bildiradi. O'zining tarkibiga majbur e'tish, qo'rqitish, do'q-po'pisa, buyruq berish, ta'qiqlash, o'rta darajada jazolash
2. Demokratik- munosabatlarda mehribon bo'lish. Oilada hamma a'zolarga nisbatan mehribon, jonkuyar bo'lish. "Siz o'z shogirdingizga shunday muomalada va munosabatda bo'lingkim, kelajakda undan buyuk inson chiqishiga ishonch ko'zi bilan qarang. (N.A.Dobralyubov).Nutqda raxmat, barakalla, minnatdorman, ofarin, yaxshi uylabsiz, ma'qul gap, tasanno va boshqa so'zlari ishlatilsa, o'quvchi bilan o'qituvchilar o'rtasidagi mehr-muhabbatni oshiradi, iplarni bog'laydi.
3. Liberal munosabat- sovuqqonlik, oiladagi munosabatlarga panja orqasidan qarash. A.Qahhor "Sinchalak" asarida qoziqning uchi ham pasti ham bo'lma, sababi uchi bo'lsang yerga kirasan, orqasi bo'lsang to'qmoq eysan, yaxshisi o'rtasi bo'l ekan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarbiya- bu uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, undagi munosabatlar kompleks va oila, mahalla va maktab hamkorligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilgan holda olib borilsa, jamiyat yanada rivojlanadi.

QO'LLANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Munavvarov A.K Pedagogika, Toshkent, "O'qituvchi", 1996, 119-136
2. Tursunov I.Nishonaliev U.Pedagogika kursi:Darslik, Toshkent "O'qituvchi" 1997,172-176
3. G'aybo'llaev N.va boshqalar Pedagogika, Toshkent, 2000,38-46 boshqalar
4. Baranov S.P.va boshqalar Pedagogika, Toshkent, "O'qituvchi" 1990.165-242 boshqalar
5. Savin N.V.Pedagogika, Toshkent, "O'qituvchi", 1975, 171-198 boshqalar